

ISLOMIY BANK TIZIMI VA UNING USTUNLIKLARI

Bobobekova Laylo G'ayratovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Iqtisodiyot fakulteti, "Bank ishi" yo'nalishi 25-38 guruh talabasi

Elektron pochta: bobobekovalaylo07@gmail.com

Tel: (99) 061-84-89

Annototsiya: *Islomiy banklar O'zbekiston moliya tizimini foizsiz, aktivga asoslangan va adolatli tamoyillari bilan rivojlantiruvchi alternativ institutdir. Ularning faoliyati ijtimoiy adolat, mulk shakllari tengligi va tadbirkorlik erkinligi g'oyalariga tayanadi. Islomiy moliya vositalari real sektorni moliyalashtirib, spekulyativ risklarni kamaytiradi. Islomiy bank modeli riskni sheriklik asosida taqsimlash orqali Konstitutsiyadagi iqtisodiy barqarorlik talabini qo'llab-quvvatlaydi. Maqola islomiy banklar faoliyati va ularning huquqiy-iqtisodiy asoslarini tahlil qiladi.*

Annotation: *Islamic banks represent an alternative institutional framework for advancing Uzbekistan's financial system through interest-free, asset-based, and equity-driven principles. Their practices are grounded in the values of social justice, equal recognition of diverse property rights, and the protection of entrepreneurial freedom. Islamic financial instruments prioritize real-sector financing and contribute to the reduction of excessive speculative risks. By distributing financial risk through partnership-oriented mechanisms, the Islamic banking model substantiates constitutional imperatives for economic stability and systemic resilience. This article provides an analytical assessment of Islamic banks' operations and their legal-economic underpinnings.*

Аннотация: *Исламские банки являются альтернативным институтом, способствующим развитию финансовой системы Узбекистана на основе беспроцентных, обеспеченных активами и справедливых принципов. Их деятельность опирается на идеи социальной справедливости, равенства*

форм собственности и свободы предпринимательства. Инструменты исламских финансов финансируют реальный сектор и снижают спекулятивные риски. Модель исламского банкинга, распределяя риски на основе партнерства, поддерживает конституционные требования экономической стабильности. Статья анализирует деятельность исламских банков и их правово-экономические основы.

Kalit soʻzlar: *islomiy bank, foiz, riba, mudaraba, musharaka, murabaha, sukuk, shariat moliyasi, barqaror moliya, ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.*

Keywords: *Islamic bank, interest, riba, mudaraba, musharaka, murabaha, sukuk, Sharia finance, sustainable finance, social justice, economic stability, Constitution of the Republic of Uzbekistan.*

Ключевые слова: *исламский банк, проценты, риба, мудараба, мушарака, мурабаха, сукук, шариатские финансы, устойчивая (стабильная) финансовая система, социальная справедливость, экономическая стабильность, Конституция Республики Узбекистан.*

KIRISH

Oʻzbekiston Respublikasi 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mamlakat iqtisodiy tizimini rivojlantirish, tadbirkorlik erkinligini taʼminlash va ijtimoiy adolatni mustahkamlashga qaratilgan asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi. Konstitutsiyaning 67–71-moddalari iqtisodiy faoliyat, mulk shakllari, bozor mexanizmlari va moliya tizimining barqarorligini tartibga soladi. Shu nuqtai nazardan, Oʻzbekistonda islomiy banklarni rivojlantirish Konstitutsiyada belgilangan tamoyillar bilan toʻliq uygʻunlashadi.

Shunday qilib, islomiy banklar faoliyati nafaqat moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qiladi, balki Konstitutsiyada belgilangan iqtisodiy erkinlik, adolat va ijtimoiy barqarorlik tamoyillarini amalda qoʻllashga xizmat qiladi. Shu bois, Oʻzbekiston sharoitida islomiy banklarni rivojlantirish milliy moliya tizimining muhim tarkibiy qismiga sylanmoqda.

So'nggi yillarda jaxon moliyaviy tizimi jadal o'zgaryotgan bir paytda, islomiy banklar modeli alohida ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy banklardan farqli ravishda islomiy moliya foizsiz, adolat va sheriklik tamoyillariga asoslanadi. Global iqtisodiy inqirozlar, moliyaviy notinchliklar va risklarning o'sishi sharoitida islomiy banklar barqarorligi, xavflarni adolatli taqsimlashi va real iqtisodiyotga yo'naltirilgani bilan e'tiborni tortmoqda. Bugungi kunda dunyoning 80dan ortiq davlatida islomiy banklar faoliyat yuritmoqda, islomiy moliya bozori hajmi esa yil sayin ko'payib, trillionlab dollarga yetmoqda. Bu esa foizsiz moliyalashtirish tizimining zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'rin egallayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston uchun ham islomiy banklar tizimini rivojlantirish dolzarb va istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Aholining katta qismi halol moliya tamoyillariga asoslangan bank xizmatlariga qiziqmoqda, real sektor esa xarajatlarni kamaytirish, risklarni adolatli taqsimlash va sheriklik asosida moliyalashtirishda ehtiyoj sezmoqda. Shu bilan birga, islomiy banklar iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalariga sarmoya jalb qilishda katta imkoniyat yaratadi.

Islomiy banklarning afzalligi shundaki, ular puldan pul yasashni emas, balki real ishlab chiqarish jarayonidan foyda olishni maqsad qiladi. Moliyaviy vositachilik shariat me'yorlari asosida olib boriladi: murabaha orqali tavar savdosi, musharaka va mudaraba orqali sheriklik, ijara orqali aktivni ijaraga berish hamda sukuk orqali investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari mavjud. Bu esa iqtisodiyotda haqiqiy qo'shilgan qiymat yaratish, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish va jamiyat faravonligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida islomiy banklar tizimini rivojlantirish hali boshlang'ich bosqichda bo'lsa-da, so'nggi yillarda bu yo'nalishda muhim qadamlar qo'yilmoqda. Qonunchilikni takomillashtirish, islomiy moliya infratuzilmasini yaratish, shariat kengashlari faoliyatini kuchaytirish, kadrlar tayyorlash va aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish kabi masalalar dolzarb hisoblanadi. Bunday o'zgarishlar mamlakat iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda, tashqi investitsiyasini jalb etishda va bank tizimida raqobatni

oshirishda muhim o'rin tutadi.

Ushbu ilmiy maqolada islomiy banklar tizimining nazariy asoslari, uning iqtisodiyotdagi o'rni, O'zbekiston uchun dolzarbligi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar yoritiladi. Shuningdek, xalqaro tajriba tahlil qilinib, mamlakatning milliy iqtisodiy modeliga mos yo'nalishlar ishlab chiqiladi. Mazkur mavzuning o'rganilishi mamlakat bank tizimini modernizatsiya qilish, aholiga sifatli moliyaviy xizmatlar ko'rsatishni kengaytirish va iqtisodiy islohotlarning samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga egadir.

Islomiy banklarning asosiy moliyaviy mexanizmlari

Mudaraba – investor capital beradi, tadbirkor – mehnat qiladi. Foyda oldindan kelishgan nisbatda taqsimlanadi. Zararni investor ko'radi, chunki tadbirkor mehnatini qo'shgan.

Masalan, bank 100 million so'm capital ajratadi. Tadbirkor esa shu mablag' bilan savdo faoliyatini olib boradi. Ular foydani oldindan kelishilgan ulushga ko'ra bo'lishadi – masalan, bank 60%, tadbirkor 40%.

Agar biznes foyda bersa – ikkalasi bo'lishadi. Agar zarar bo'lsa – kapital egasi bo'lgan bank zararini o'zi ko'taradi, tadbirkor egasi bo'lgan bank zararini o'zi ko'taradi, tadbirkor esa mehnati zoye ketadi, lekin moliyaviy zarar olmaydi. Bu – klassik mudaraba modelidir.

Musharaka – bank va mijoz birgalikda capital kiritadi. Foyda ulush asosida bo'linadi, zarar capital ulushiga muvofiq taqsimlanadi.

Masalan, bank va fermer birgalikda issiqxona qurishga kelishdi.

Bank: 200 million kiritadi.

Fermer: 100 million yer uchastikasi va jihoz qo'shadi.

Hosil sotiulgach, sof foyda 90 million:

Bank ulushi: 60 million

Fermer ulushi: 30 million

Bu – capital va mehnatning birlashgan shakli.

Murabaha – bank tovarni sotib oladi va mijozga ustama qo'yib sotadi. Bu – islomiy muqobil kredit shaklidir.

Masalan, shifoxona yangi laboratoriya uskunalarini olmoqchi. Bank uskunalarini 300 million so‘mga sotib oladi. So‘ng shifoxonaga 335 million so‘mga sotadi. To‘lov 2 yil davomida amalga oshiriladi.

Shifoxona tovarni darxol oladi, bank esa asta-sekin foydasini yig‘ib oladi.

Ijara - bank aktiv sotib oladi va mijozga ijaraga beradi. Muddat tugagach, aktiv mijozga o‘tishi mumkin.

Masalan, Malayziya yoki Saudiya Arabistoni islomiy banklari ko‘pinch avtomobil, tibbiyot va ishlab chiqarish texnikasini ijara orqali moliyalashtiradi.

Uskunalar mijozga beriladi, kelishilgan ijaraga asoslangan to‘lovlar bilan foyda olinadi.

Sukuk – islomiy obligatsiyalar bo‘lib, ular foiz emas, balki real aktivdan olinadigan daromadga tayanadi.

Masalan, Saudiya Arabistoni yo‘llar qurilishi uchun sukuk chiqaradi – qiymati 1 milliard dollar.

Investorlar sukukni sotib oladi va mablag‘ loyihaga o‘tkaziladi.

Yo‘l qurilgach, foydalanishdan tushgan daromad investorlar o‘rtasida ulushda taqsimlanadi. Shariatga mosligi: investorlar foiz o‘rniga aktivdan foyda oladi.

Islomiy banklarning nazariy asoslari va tamoyillari

Islomiy moliya tizimi an‘anaviy bank tizimidan tubdan farq qiluvchi o‘ziga xos tamoyillariga asoslanadi. Uning bosh g‘oyasi – moliyaviy resurslar real iqtisodiy faoliyatga xizmat qilishi, jamiyatda adolatli daromad taqsimoti ta‘minlanishi va harom faoliyatlardan voz kechilishi. Islomiy banklar faoliyatida asosiy tamoyillar sifatida foizning (riba) taqiqlanishi, real aktivlarga tayanish, risklarning sherikchilik asosida taqsimlanishi, spekulativ bitimlar va qimor taqiqlanishi ko‘zda tutildi.

Birinchidan, islomiy banklar jarayonida foiz qo‘llanilmaydi. Bank kredit berib, foiz orqali daromad olish o‘rniga, mijoz bilan sherikchilik munosabatiga kiradi yoki tovar asosida savdo operatsiyasini amalga oshiradi. Bu tamoyil bankni ishlab chiqarish jarayonining haqiqiy ishtirokchisiga aylantirib, iqtisodiyotning real

sektorini qo'llab-quvvatlaydi.

Ikkinchidan, islomiy moliyada risk taqsimoti muhim o'rin egallaydi. Masalan, mudaraba (ishtirikchiik asosidagi investitsiya) shartnomasida bank kapital beradi, mijoz esa mehnat qilishi orqali foyda keltiradi. Foyda oldindan kelishilgan ulush asosida bo'linadi, zarar esa capital egasi tomonidan qoplanadi. Bu tamoyil iqtisodiy adolatni ta'minlab, shartnoma tomonlari orasida ishonchni mustahkamlashdi.

Uchinchidan, islomiy banklar real aktivga tayanadi. Hech bir bitim qog'ozdagi pul o'yinga asoslanmaydi, har bir moliyaviy operatsiya ortida tovar, xizmat yoki real loyiha bo'lishi shart. Bunday yondashuv moliyaviy pufaklar payda bo'lishning oldini oladi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi

Shuningdek, murabaha, musharaka, ijara, salam va istisno kabi shariat asosidagi moliyaviy instrumentlar iqtisodiyotning turli sohalarini moliyalashtirishda keng qo'llaniladi. Bu instrumentlar banklar uchun risklarni kamaytiradi, mijozlar uchun esa shaffof va halol moliyaviy imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda islomiy banklar tizimi jaxon moliyaviy tizimining eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon islomiy moliyalashtirish bozori ajoyib o'sishni ko'rsatyabdi. 2010-yilda umumiy hajm \$1 trln ga yetgan bo'lsa, 2024-yilga kelib aktivlar 4 barobar ko'payib, \$4,5-\$4,7 trln ga yetdi. Shu bilan birga, o'sish prognozlari ijobiylikicha qolyapti. Islomiy banklar va moliya institutlari bosh kengashi 2025-yil boshidayoq shu yilning dekabr oyi oxirida bozor hajmi \$5,3 trln gacha o'sishni, 2030-yilga kelib esa deyarli \$10 trln ga yetishni ta'kidlagan edi. Raqamlar mijozlarning ishonchi va iqtisodiyotning o'sishini ham ko'rsatyabdi – 2023-yilda jahon islomiy bankchilikda omonatlar hajmi qariyb 8% ga oshdi. Yuqorida gapirilgan tafakul bozori – barcha mahsulotlar orasida eng kichik segment. Lekin bu uning o'rtacha yillik o'sish sur'atida (CAGR) yuqori natija ko'rsatishga to'sqinlik qilmaydi. Prognozlarga ko'ra, 2035-yilga borib takaful 2 barobarga ko'payib, \$110 mlrd ga yetadi.

So'nggi yillarda 80 dan ortiq mamnlakatda islomiy banklar faoliyat yuritayotgani bu sohaning ulkan iqtisodiy salohiyatidan dalolat beradi. Malayziya,

Saudiya Arabistoni, Turkiya, Indoneziya va Bahrayn ushbu sohada yetakchi davlat bo'lib, ular islomiy banklar orqali real sektorni moliyalashtirish, xususiy sarmoyalarni rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim natijaga erishgan. Masalan, Malayziya tajribasida islomiy banklar kredit portfelining 60 foizdan ortig'ini kichik biznes, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va infratuzilma loyihalariga yo'naltiriladi. Bu esa real sektorda barqarorlikni ta'minlaydi, yangi ish o'rinlari yaratadi va iqtisodiy faollikni oshiradi. Turkiyada esa islomiy banklar sonining ko'payishi bank tizimidagi raqobatni kuchaytirib, aholiga ko'rsatilayotagan xizmatlar sifatining oshishiga zamin yaratgan.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki islomiy banklar moliyaviy inqirozlarga nisbatan ancha barqaror bo'ladi. Chunki ular spekulyativ operatsiyalardan yiroq turadi, real aktivlar asosida ishlaydi va risklarni shariat asosida kelishilgan tartibda taqsimlaydi. 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz davrida ko'payib an'anaviy banklar qiyinchiliklarga duch kelgan bo'lsa, islomiy banklar nisbatan kam zarar ko'rdi. Bu esa islomiy moliya modelining barqarorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

O'zbekistonda islomiy bank tiziming rivojlanish istiqbollari

O'zbekiston islomiy moliya sohasini yo'lga qo'yishda katta salohiyatga ega. Aholi orasida halol moliya tamoyillariga qiziqish yuqori, kichik biznes va qishloq xo'jaligi sohalari esa sheriklik asosida moliyalashtirishda mos keladi. So'nggi yillarda islomiy banklar faoliyatiga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, shariatga mos moliyaviy mahsulotlar taklif etilmoqda. Ammo tizim hali to'liq shakllanmagan va ko'plab muammolar mavjud. Biroq barcha muammolarga qaramay, islomiy banklarning O'zbekistondagi rivojlanish istiqbollari juda yuqori. Agarda huquqiy baza takomillashsa, shariat kengshlari faoliyati kuchaysa, zamonaviy raqamli texnologiyalar joriy etilsa va aholi xabardorligi oshirilsa, islomiy moliya bozori tez sur'atlarda kengayadi.

O'zbekistonda islomiy moliyalashtirish bozori hozircha shakllanish bosqichida. Yil oxirigacha ekspertlar mamlakatda birinchi islomiy banklarni ochish va xalqaro fondlardan sarmoyalar jalb qilish imkonini beruvchi "Islomiy banking to'g'risidagi" qonunning qabul qilinishi kutishyabdi. Yevroosiyo taraqqiyot

bankining hisob-kitoblariga ko'ra, 2033-yilga kelib O'zbekiston Markaziy Osiyoda Qozog'istondan keyin ikkinchi yirik islomiy aktivlar bozoriga aylanadi va uning aktivlari \$2,4 mlrd gacha o'sadi. Bundan tashqari, O'zbekiston tadbirkorlarining 60 foizi va mamlakat aholisining 68 an'anaviy bankchilikdan islomiy bankchilikdan o'tishni istaydi. O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga oid qonun loyihasi ishlab chiqildi. Bu haqda ba'zi partiyalar fraksiyalari yig'ilishlarda ma'lum qilindi. O'zLiDeP fraksiyasining 15-sentabr kuni yig'ilishda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi" qonun loyihasi muhokama qilindi. Ta'kidlanishicha, islomiy moliyada savdo va sherikchilik orqali moliyalashtirish keng qo'llaniladigan moliyalashtirish shakllari hisoblanadi, qonunchilikda esa tijorat banklari tomonidan bunday shakllardan foydalanishiga bir qator to'siqlar mavjud. Xususan, islomiy moliyalashtirishda banklar savdo bilan shug'ullanish orqali mijozni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, O'zbekistonda tijorat banklari savdo bilan bevosita shug'ullanishi mumkin emas. Islomiy moliyada moliyalashtirishni sheriklik asosida amalga oshirishga ruxsat etilgan, O'zbekiston esa tijorat banklariga yuridik shaxslarni tashkil etish yoki ularning ustav kapitallarida qatnashishga doir cheklovlar o'rnatilgan. Qonun loyihasi O'zbekistonda islomiy moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti hamda Islom moliyasi xizmatlari kengashi standartlariga mos keluvchi bank faoliyati uchun zarur huquqiy asos yaratishga qaratilgan." Ushbu Qonun O'zbekistonda islomiy banklar va islomiy "darcha"lar faoliyatini yo'lga qo'yish, "yashirin" iqtisodiyot ulushini kamaytirish, qolaversa mamlakatimizga islomiy bank faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qiladi", - deyiladi fraksiya xabarida. Ushbu qonun loyihasi Milliy tiklanish fraksiyasi yig'ilishida ham muhokama qilindi. Unda qayd etilganidek, BMT Taraqqiyot dasturi so'rovnomasiga ko'ra, O'zbekistonda aholining 68 foizi, biznes vakillarining esa 60 foizi diniy e'tiqodi sabab an'anaviy bank xizmatidan foydalanishni xohlamaydi. 2018-yilda O'zbekistonda islomiy bank ishi va moliyalashtirishda infratuzilmasini yaratishga oid prezident qarori loyihasi qarori

ishlab chiqilib, muhokamaga qo'yilgan edi. Hujjatda foizlar ko'rinishidagi haq to'lashni taqiqlash, foyda va zararni tadbirkor bilan loyihadagi ishtirok ulushlariga mutanosib ravishda taqsimlash, sug'urta faoliyatini amalga oshirish (takaful), lizing faoliyati (ijara), qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar (sukuk) va islomiy moliya tamoyillariga asoslangan boshqa operatsiyalar bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish ko'zda tutilgan edi.

Shuningdek, prezident 2022-yil avgusti va 2023-yili bo'lib o'tgan tadbirkorlar bilan uchrashuvlarida ham islomiy moliya masalasi ko'tarilgan edi. Markaziy bank raisi o'rinbosari Behzod Hamroyev 2024-yil mayida Islomiy banking to'g'risidagi qonun loyihasi ishlab chiqilgani, u joriy yilda parlamentga kiritilishini aytgandi.

Islomiy banklar rivojlantirish yo'llari

Islomiy banklar O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror va samarali moliyaviy institut sifatida rivojlanishi uchun quyidagi omillar va strategiyalar muhimdir.

1. Normativ-huquqiy bazani mustahkamlash

- ✓ Islomiy banklar faoliyatini rivojlantirish uchun eng birinchi shart – ishonchli va aniq qonunchilik.
- ✓ O'zbekiston hukumati tomonidan Islomiy moliya to'g'risidagi maxsus qonunlar ishlab chiqilishi zarur.
- ✓ Bank va mijoz o'rtasidagi shartnomalar shariatga mos bo'lishi lozim.
- ✓ Xalqaro tajribaga qaraganda, Malayziya, Saudiya Arabistoni va BAA banklarining muvaffaqiyati qonunchilikning aniq va shaffof bo'lishiga bog'liq.

Natija: Qonunchilikni rivojlantirish investor va tadbirkorlar uchun ishonchli muhit yaratadi.

2. Kadrlar tayyorlash va malakali mutaxassislarni jalb qilish

- ✓ Islomiy bank tizimi an'anaviy banklardan farq qiladi, shuning uchun shariat va moliya sohasida malakali kadrlar talab qilinadi.
- ✓ Universitetlar va moliya institutlarida Islomiy moliya kurslari va fakultetlari ochilishi lozim.

✓ Banklarda xodimlarni muntazam trening va sertifikatlash orqali malakasini oshirish.

✓ Xalqaro tajriba: Malayziyada 2010-2020-yillarda islomiy moliya mutaxassislari soni ikki baravar oshdi, bu banklarning samaradorligini oshirdi.

Natija: Malakali kadrlar bank instrumentlarini samarali ishlatadi va risklarni boshqaradi.

3. Xalqaro tajriba va investitsiyalarni jalb qilish

✓ Islomiy banklarni rivojlantirish orqali xorijiy investitsiyalardan foydalanish mumkin.

✓ Sukuk bozorini rivojlantirish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

✓ Malayziya, Saudiya Arabistoni, Qatar kabi mamlakatlardagi muvaffaqiyatli tajribalarni o'rganish.

✓ Xorijiy banklar bilan hamkorlik, tajriba almashish va moliyaviy texnologiyalarni joriy qilish.

Natija: Kichik investitsiyalar iqtisodiyotga kirib, islomiy bank tizimini mustahkamlaydi.

4. Innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish

✓ Bankning rivojlanishi uchun IT va fintech yechimlarini qo'llash mumkin.

✓ Mobil ilovalar va onlayn bank xizmatlari.

✓ Electron to'lov tizimlari va avtomatlashtirilgan risk nazorati.

✓ Xalqaro tajribada fintech integratsiyasi islomiy banklar samaradorligini 20-30% oshirgan.

Natija: Tezkor, qulay va xavfsiz moliyaviy xizmatlar rivojlanadi.

5. Marketing va ma'lumotlashuvni kuchaytirish

✓ Islomiy bank xizmatlari haqida kengroq reklama va targ'ibot qilish.

✓ Aholiga va tadbirkorlarga murabaha, mudaraba, musharaka, ijara va sukuk kabi instrumentlarni oddiy va soda tushuntirish.

Natija: Bank xizmatlari bo'yicha aholi ishonchi oshadi, yangi mijozlar jalb

qilinadi.

6. Maxsus imtiyozlar va subsidiyalar

✓ Kichik biznes va qishloq xo'jaligi uchun foizsiz subsidiyalar yoki kam stavkali islomiy moliyalashtirish paketlari yaratish.

✓ Davlat qo'llab-quvvatlashi orqali yangi loyihalarni moliyalashtirish.

Natija: Banklar faol mijoz bazasini kengaytiradi, iqtisodiy barqarorlik oshadi.

XULOSA

Islomiy banklar O'zbekistonda foizsiz moliya asosida ishlaydigan muhim moliyaviy institut hisoblanadi. Ularning foyda va zarar, riskni taqsimlash tamoyillari Konstitutsiyada belgilangan iqtisodiy erkinlik, tadbirkorlik va ijtimoiy adolat prinsiplari bilan mos keladi. Islomiy banklar kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, aholiga halol moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va moliya tizimini barqaror qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ularning faoliyati Konstitutsiyaning 67–71-moddalarida belgilangan iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy shaffoflik tamoyillarini amalda ta'minlaydi. Islomiy banklarni rivojlantirish nafaqat moliyaviy xizmatlar, balki Konstitutsiya kafolatlagan iqtisodiy erkinlik, adolat va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1]. Ahmed, H. (2010). Introduction to Islamic Finance. Wiley Finance.
- [2]. Usmani, M.T. (2002). An Introduction to Islamic Finance. Karachi: Idara Isha'at-e-Diniyat.
- [3]. Khan, T., & Ahmed, H. (2001). Risk Management in Islamic Banking. Islamic Research and Training Institute.
- [4]. Iqbal, Z., & Mirakhor, A. (2007). An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. John Wiley & Sons.
- [5]. Chapra, M.U. (2000). Islamic Economics: What It Is and How It Developed. Islamic Development Bank.
- [6]. Obaidullah, M. (2005). Islamic Financial Services. Islamic Economics Research Center.

- [7]. Siddiqi, M.N. (2006). Islamic Banking and Finance in Theory and Practice. Islamic Research & Training Institute.
- [8]. Cengiz, E., & Ahmad, A. (2012). Islamic Banking and Finance in Emerging Economies. Routledge.
- [9]. AAOIFI (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions). (2020). Shariat Standards for Islamic Financial Institutions.
- [10]. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. (2023). Islomiy moliya va bank tizimi bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar.
- [11]. Kun.uz — Islomiy investitsiyalar potentsiali – 4 trillion dollar... (link)
- [12]. Kun.uz — Islomiy moliya – nima u? (link)
- [13]. Kun.uz — Islomiy moliya vositalari – tashqi qarz yukini yumshatish yo‘li (link)
- [14]. Kun.uz — O‘zbekiston MDHning islomiy moliya markaziga aylanish potentsialiga ega (link)
- [15]. Kun.uz — Islom moliyasi – sog‘lom iqtisodiyotga qadam (link)
- [16]. Kun.uz — “O‘zbekistonda islom moliyasi xizmatlarini joriy qilish vaqti keldi” – Shavkat Mirziyoyev (link)
- [17]. Gazeta.uz — O‘zbekistonda 2030-yilgacha kamida 10 ta islomiy bank... (link)
- [18]. Gazeta.uz — O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga oid... (link)
- [19]. Gazeta.uz — “Islom moliyasi to‘g‘risidagi qonun loyihasi tayyor” — MB (link)
- [20]. Gazeta.uz — Fido-Biznes va IsBF birgalikda O‘zbekistonda islomiy moliyani rivojlantiradi (link)
- [21]. Qo‘qon Universiteti Xabarnomasi — O‘zbekistonda islomiy moliya tizimini qo‘llash istiqbollari (link)
- [22]. ResearchGate — Islom moliyasi asoslari (o‘quv qo‘llanma)
- [23]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.

- [24]. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. (2023). Islomiy moliya va bank tizimi bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar.
- [25]. Kun.uz — Konstitutsiya va moliyaviy barqarorlik: islomiy moliya orqali amalga oshirish (link)
- [26]. Gazeta.uz — Konstitutsiyaga muvofiq O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini rivojlantirish (link)